SUN’IY INTELEKT VOSITASIDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL QILISH

https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i1.006

Abduqayumov Anvar Xudoyberdiyevich
GulDU mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt vositalari asosida mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Unda raqamli iqtisodiyot va SMART ta’lim sharoitida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda individual yondashuv asosida ta’lim sifatini yaxshilash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalarining adaptiv va interaktiv ta’lim muhitini yaratishdagi imkoniyatlari, talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, mustaqil ta’lim, raqamli ta’lim, SMART ta’lim, individual yondashuv, adaptiv ta’lim, interaktiv ta’lim muhiti, ta’limni modernizatsiya qilish, kasbiy kompetensiya, ta’lim sifati, tanqidiy fikrlash, raqobatbardosh kadrlar.

Mamalakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar doirasida raqamli iqtisodiyot, SMART ta’lim va raqamli ta’lim tizimlarini joriy etish orqali ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, bo‘lajak mutaxassilarni sifatli tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida suniy intelekt vositalari yordamida mustaqil ta’limni tashkil qilish jarayoni samarali, interaktiv va talabalarni global raqobatbardosh kadrlar sifatida kasbiy tayyorlashga qaratiladi. Shu bois, sun’iy intellekt vositasida mustaqil ta’lim jarayonini tashkil qilish bugungi kunda ta’limi sifatini zamonaviy talablar asosida yaxshilashga xizmat qiluvchi omil sanaladi. Bu nafaqat talabalarning bilimini individual yondashuv asosida o‘zlashtirishini ta’minlaydi, balki ta’lim sifatini oshirish, talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida mustaqil ta’lim va individual yondashuv muhim o‘rin tutmoqda. Sun’iy intellekt vositalari esa, talabaning bilimini o‘zlashtirish jarayonini samarali tashkil etish, interaktiv va adaptiv ta’lim muhitini yaratish imkoniyatini beradi. Sun’iy intelekt yordamida mustaqil ta’lim jarayonini tadqiq qilish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib, talabaning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intelekt vositalaridan mustaqil ta’lim jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati mavjudligi va quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratilishi kerakligini nazarda tutadi:

talabaning o‘z darajasiga mos o‘qitish, loyiha va mashqlarni avtomatik tanlash imkoniyati mavjudligi;

talabaning kasbiy rivojlanishini aniq belgilangan vaqt rejimida kuzatish imkoniyatining mavjudligi;

talabalarni ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini rag‘batlantirish imkoniyati;

sun’iy intellekt vositalari talabaning mustaqil o‘rganish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Olimlarning tadqiqot ishlari natijasida sun’iy intellekt vositalarida mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishning ilmiy va amaliy asosini yaratildi.

Sun’iy intellekt - bu insonning mantiqiy fikrlashi, o‘rganishi, qaror qabul qilishi va muammolarni hal qilishni zamonaviy AKT vositalari yordamida amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyadir.

“Mustaqil ta’lim - bu ta’lim oluvchining o‘z bilimi, ko‘nikmalari va kompetensiyalarini mustaqil ravishda ta’lim beruvchi yoki mentor tomonidan berilgan yo‘nalishlar asosida shakllantirish jarayonidir”[10].

Mustaqil ta’lim faoliyatini samarali tashkil etish uchun aniq mexanizm va bosqichlarni belgilash zarur. Mexanizmda ta’lim oluvchining faoliyatini rejalashtirish, resurslardan foydalanish, mashqlar va loyihalar orqali bilimni mustahkamlash va monitoring qilish orqali rivojlanishni baholashga qaratilgan. Quyida mazkur mexanizmning asosiy bosqichlari va sun’iy intellekt vositalari bilan integratsiyalashgan imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish mexanizmi



Mazkur mustaqil ta’lim jarayonini tashkil qilish mexanizmi zamonaviy ta’lim texnologiyalari, xususan, sun’iy intelekt bilan integratsiya qilinganda yanada

takomillashadi. Chunki sun’iy intellekt vositalari talabaning darajasi va ehtiyojiga mos ravishda moslashuvchan ta’lim muhitini yaratadi, bu esa, mustaqil ta’lim jarayonining ilmiy asoslangan mexanizmini yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Выготский, Л. С. *Психология развития ребёнка*. - Москва: Педагогика, 1991.

2.Выготский, Л. С. *Педагогическая психология*. - Москва: Педагогика, 1999.

3.Леонтьев, А. Н. *Проблемы развития психики*. - Москва: Изд-во МГУ, 1981.

4.Nasimov, R. *Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayonini loyihalash*. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

5.Nasimov, R. *O‘quv jarayonida mustaqil ta’limni tashkil etish metodlari*. - Respublika ilmiy jurnali, 2021.

6.Mo‘minova, M. *Talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi*. - Oliy ta’lim jurnali, 2020.

7.Mo‘minova, M. *Raqamli ta’lim sharoitida pedagogik faoliyatning transformatsiyasi*. - Toshkent: Fan, 2022.

8.Mollick, E. *“Using AI to Enhance Teaching and Learning”*. - Wharton Interactive Research Papers, 2023.

9.Mollick, E. *“The Practical Guide to Using AI in Education”*. – 2024

10. Turdiboyev D.X., Mirmuhammedov J.X., Zokirov A. Improvement of teaching geometry based on pedagogicalsynergetical principles. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 08, 2020 ISSN: 1475-7192. – P. 5268-5276.